


Mineralogiya bo'yicha yangi qo'llanma

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi tomonidan "Umumiy mineralogiya" nomli yangi o'quv qo'llanma tayyorlandi va chop etildi. Kitob mualliflari - O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi raisi, geologiya-mineralogiya fanlari doktori A.U.Mirzayev va doktoranti Sh.F.Sharipov hamda Navoiy davlat konchilik instituti "Noyob va radioaktiv metall rudalarini qazish va qayta ishlash" kafedrasida assistenti B.X.Nurtayevlar.



Shuni ta'kidlash joizki, hozirgi kunga qadar mineralogiya sohasida yagona qo'llanma bo'lgan A.G.Betextinning "Mineralogiya kursi" 1969 yilda o'zbek tiliga tarjima qilingan, ammo unda sohadagi keyingi 50 yillik yangi ma'lumotlar mavjud emas edi. Yuqoridagi vaziyatni bartaraf etish maqsadida mualliflar ushbu o'quv qo'llanmani tayyorlashga kirishdi.

O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining geologiya, foydali qazilma konlar geologiyasi va razvedkasi, neft-gaz konlari, kimyo-texnologiya, kon metallurgiyasi va boshqa ixtisosliklar bo'yicha kunduzgi bo'limlarida ta'lim olayotgan talabalar uchun yordam sifatida yozilgan. Shu bilan birga, talabalar uchun minerallarning diagnostik belgilari hamda minerallarning fizik-kimyoviy

xususiyatlari haqida soʻz yuritilgan. Bulardan tashqari, ushbu kursning nazariy qismida yer qobigʻidagi mineral hosil qiluvchi jarayonlar qisqacha taʼriflangan. Kitob 196 betdan iborat. Uni elektron shaklda Fanlar akademiyasi Navoiy boʻlimining rasmiy telegram-kanaliga obuna boʻlib, <https://t.me/academynav> havolasi orqali yuklab olish mumkin.

FA Navoiy boʻlimi matbuot xizmati.